

YOSHLARNI TARBIYASIDA INTERNETNI TUTGAN O'RNI

Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo‘lim o‘qituvchisi.

Zokirjonova Dilraboxon Zokir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo‘lim

Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqoladan, ta’lim tizimining samaradorligi jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omilligi asnosida ta’lim tizimidagi pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda yoshlarni internetdan foydalanish madaniyatini yaxshilashning ijobiy ahamiyati to‘g‘risida fikr yurutilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar dunyosi, integratsiya, axborot iste’moli, tahlil qilish, internet olami, elektron xizmatlar.

Аннотация: Из этой статьи, исходя из того факта, что эффективность системы образования является определяющим фактором развития общества, делается вывод о положительном значении педагогических технологий в системе образования для улучшения культуры использования интернета молодыми людьми.

Ключевые слова: Социальные сети, Мир молодежи, интеграция, потребление информации, аналитика, мир интернета, электронные услуги.

Abstract: From this article, the idea was made about the positive importance of improving the culture of the use of the Internet of youth, along with pedagogical technologies in the educational system, as well as the effectiveness of the educational system as a factor that determines the development of society.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Keywords: Social networks, Youth World, integration, information consumption, analysis, internet world, electronic services.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi bolalarga o‘z hayotlarini internet bilan birlashtirishga imkon berdi. Biroq, ushbu raqamli asrda bolalarda internetga qaramlik tashvishli muammoga aylandi. Internetga qaramlik bolalarning kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va boshqa raqamli qurilmalarda ortiqcha vaqt o‘tkazishi va nazoratsiz ravishda onlayn faoliyat bilan shug‘ullanishini anglatadi. Ushbu maqolada bolalarda internetga qaramlikning ta’riflari, belgilari va oldini olish usullari bat afsil ko‘rib chiqiladi. Ma’lumki, internet-axborot va hujjatlarning o‘zaro almashinishini ta’minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. 21 asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog‘i-internetsiz tasavvur qilish mushkul.

Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko‘chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo‘ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta’lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo‘lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnomalar qilish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messennjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiylar o‘tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish.

Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televide niye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Lekin internet ko‘plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa *yoshlarda* axborot iste’moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko‘nikmaning yetishmasligi ba’zilarning g‘arazli kimsa va oqimlar ta’siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo‘liqishlariga sabab bo‘lmoqda. Xitoy Xalq Repspublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e’tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so‘zimizning isbotidir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko‘p vaqtini internetda o‘tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihatni real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta’sir qilishda asosan internetdan foydalananayotganlari bejiz emas.

Bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz internetga qaram bo‘lib qolmoqda. Bu esa slbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Internetga qaramlik – bu odamning onlayn faoliyat bilan haddan tashqari band bo‘lgan va bu faoliyatni nazorat qila olmaydigan holat. Bolalarda bu holat ko‘pincha o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, videolarni tomosha qilish yoki onlayn xarid qilish kabi faoliyatlar atrofida bo‘lishi mumkin. Internetga qaramlik bolaning normal ijtimoiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Internetning yana bir salbiy jihatni-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir.

Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalinish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o‘rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydaluvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagи axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Keling biz ongimizni jazolaylik inernetdan foydalanmaylik yo‘q foydalanmaslik yechim emas va u bizga kerak ham emas. Biz internet nazoratida emas u bizni nazoratimizda bo‘lishini ta’minlaylik.Unga bog‘lanib qolmaylik, lekin unga bo‘lgan xohishimizni, talabimizni jilovlaylik. Shunday qilaylikki uni faqat bizga xizmat qilishga majbur qilaylik, biz unga emas. U juda ayyor bo‘lsa biz undanda ayyor bo‘laylik. Biz ham o‘g‘ri bo‘laylik qanday o‘g‘ri bo‘laylik deysizmi internetdan o‘zimizni kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni olaylik bilimimizni oshiraylik lekin uni bizni umrimizni o‘g‘irlashiga yo‘l qo‘ymaylik va bunga qattiq va jiddiy reaksiya bildiraylikki biz unga qanchalik irodali, shijoatli ekanimizni ko‘rsatib qo‘yaylik. Bir inson dunyoga kelibdiki uni o‘z vazifasi va maqsadi bor va bo‘lishi ham kerak. Hoxish va iroda bo‘lsa hamma narsa qo‘lingizdan keladi faqatgina diqqat, intizom va harakat bo‘lsa bas. Mana shu uchta unsur inson omili deb oladigan bo‘lsak shularni birlashtira olsangiz siz dunyonи o‘zgartiradigan inson bo‘lishingizdan hech kim va hech narsa qaytara olmaydi va siz o‘ylagan maqsadingizga erisha olasiz vaholanki, siz bu dunyoga kelishingiz shunchaki emas, siz bu kashfiyat , siz bu yaxshilik, siz bu yuksalish, siz buadolat va qudrat uchun dunyoga kelgansiz. Har kim o‘z menini topishi va uni hurmat qilishi kerak va bunga intilishi kerakki kelajakda yosh avlod sizni ko‘rib ibrat olsin, sizni ko‘ribadolat nimaligini tushunsin, sizni ko‘rib inson qanaday yashash kerakligini tushunib yetsin. Har hil internetdagi soxtaadolatparvar insonlarni ko‘rib emas. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda internet tarmoqlari insonlarga ko‘plab imkoniyatlar, qulayliklar yaratib berish bilan bir qatorda, jamiyatimiz yoshlarning g‘oyaviy, axloqiy me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayni davrda internet tarmoqlari yoshlari hayotini izdan chiqarib yuborishga qodir kuchli qurolga aylanib ulgurdi. Bu tarmoqlar yoshlari orasida qanchalik ko‘p o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sari, ularning xavfi ham ikki barobar oshmoqda. Yosh avlodning deyarli 70-80% global tarmoqning asiriga aylanib qolgan. Ular shu darajada internetga bog‘lanishdiki, xatto tongni u bilan qarshilab kunni u bilan kuzatayotganlarini o‘zlarini ham sezmay qolishdi. Internet tarmog‘lari yoshlarning dunyoqarashini, fikrini o‘zgartirib yubordi. Bu olamga g‘arq bo‘lgan yoshlarning deyarli ko‘pchiligidida insoniylik, mehr-oqibat, tuyg‘ulari, muomala ma’daniyati kamayib bormoqda. Masalan jamoat transportida telefonidan ko‘zini uzmay kelayotgan bola u yerdagi axloq qoidalarini ham unutib qo‘ymoqda. Yaqinlariga, ota-onasiga ham internetga ajratganchalik ko‘p vaqt ajratmay qo‘yayotganini o‘zi ham sezmay qolmoqda. Internet bu kabi yoshlari vaqtining ham eng katta dushmani hisoblanadi. Bu “sun’iy olam” ga bog‘lanib qolib hayotimizning eng

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

muhim davrlarini o'tkazib yuborayotgan va nimanidir qo'ldan boy berayotgan bo'lishimiz mumkin. Bir kun internetdan foydalanmasak kunimiz qanchalik unumli bo'lganini sezamiz. Shunday ekan, internet asiriga aylanmasdan uning girdoblarida umrimizni zoye ketkazmasdan undan o'zimizni himoya qilishimiz lozim. Har bir irodasi mustahkam yosh avlod vaqt ni o'zining eng qimmatbaho boyligi ekanligini anglaydi va uni kimga va nimaga sarflashini juda yaxshi biladi. Ularda internetning turli xurujlariga qarshi kurashish immuniteti mavjud bo'ladi. Bu bilan ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaslik emas, balki undan me'yor bilan foydalanish kerak. Ular hayotimizda birinchi o'rinda emas, oxirgi o'rnlardan joy olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, bizga berilgan umrni samarali sarflash har birimizning o'z qo'limizda. “Har qanday davlatning yoshlari o'z oldiga qo'yayotgan maqsadiga qarab, shu davlatning kelajagini bilish va belgilashi mumkin “.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.:”Fan va texnologiya”, 2002, 500 b.
- 2.Rashidova O. (2023) “The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270
- 3.Dilfuza, Xolmuminova. "THE ROLE OF MUSEUM PEDAGOGY IN THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM OF FUTURE TEACHERS IN THE NEW UZBEKISTAN." Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions 2.4 (2024): 48-51.
- 4.Dilfuza, Xolmuminova. "THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL ABILITIES OF TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN AN INTEGRATIVE DIRECTION." Web of Teachers: Inderscience Research 2.4 (2024): 37-40.
- 5.Umarov, Ilhom, and Dilfuza Xolmuminova. "FE'L SO'Z TURKUMINI O'TISHDA O 'YIN-TOPSHIRIQLARNING O 'RNI." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.4 (2023): 34-37.
- 6.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-O'zbekiston Respeblikasi.